

"O'zkiyosanoat" AJ boshqaruv raisi maslahatchisi "Diniy bag'rikenglik" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi

// 17.11.2025

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-boshqaruv-raisi-maslahatchisi-diniy-bag-ri>



Poytaxtimizda "16-noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni" munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimiz Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan "Diniy bag'rikenglik" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Tadbirda vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari, diniy konfessiyalar vakillari, milliy madaniy markazlar faollari, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelayotgan hamyurtlar, shuningdek OAV vakillari ishtirok etdi.



Yurtimiz ravnaqi va ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizga "Diniy bag'rikenglik" ko'krak nishonlari o'z egalariga topshirildi.

Quvonarlisi, "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisining ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi Sanobar Abduraxmanova ham "Diniy bag'rikenglik" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



Ta'kidlash joiz, davlatimiz rahbari tomonidan diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan siyosat natijasida fuqarolarning vijdon erkinligi, dinlararo va millatlararo totuvlik ta'minlanayotgani, mazkur ko'krak nishonining ta'xis etilgani va taqdim etilayotgani esa ushbu soha rivojiga bo'lgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasidir.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbout xizmati